



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Elektron nashr. 463 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	14
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqov	
Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli.....	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari.....	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari	71
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане.....	76
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan	81
S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari.....	88
Muxamedov Ravshan Zafarovich	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	93
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati.....	99
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash	105
Uraqov Shokir Ulashovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari.....	112
Istamova Sojida Kaxarovna	
The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan	117
Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna	
Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari	126
Muradov Botir Xayat	
Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки	136
Салимова Юлдуз Исаковна	
Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance	141
Karlibaeva Gulshat	



Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari.....	147
Absamatov Anvar Ergashovich	
Перспективы цифрового развития сектора материального производства.....	153
С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева	
«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains»	161
Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu	
Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan	169
Nigmatova Malika	
Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva).....	177
Sabina Uroкова	
Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi.....	184
Daminova Barno Esanovna	
Опыт турции в управлении миграционными кризисами	189
Бегматов Хусанбек	
Bulutli texnologiyalar orqali korxonalar buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish.....	193
Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li	
Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutsional asoslari.....	197
Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich	
Moliyaviy outsorsing xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirishning swot tahliliga asoslangan innovatsion mexanizmlari	202
San'atbek Komilovich Salayev, Umidbek Komiljanovich Babajanov	
Transformatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiyot tizimi faoliyati va prognozlashning nazariy asoslari	214
Alimov Fazliddin Xalimovich	
Пути совершенствования подхода к финансированию проектов, реализуемых на принципах промышленной кооперации.....	220
Котов В.А., Шадиева Д.Х.	
Yuksalish salohiyatini yuksaltirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatidan foydalanish masalalar	225
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
Bank xizmatlari ommabopligini oshirish yo'llari.....	228
Kasimova Muxlisa Anvar qizi	
Chemical industry in Uzbekistan: challenges and development	235
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
Samarqand viloyatida tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish orqali bandligini oshirish imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Muhriddin Musoqul o'g'li	
Globalashuv sharoitida ekologik xavflarni kamaytirishda yashil iqtisodiyotning ahamiyati.....	246
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna	
Qibray tumanining 2021–2023-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati.....	249
Siddikov Alisher Ismoilovich	
Davlat xaridlari tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: xalqaro tajribalar tahlili	253
Majidov Nizom Baxramovich	
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi.....	259
Ermatov Nosir Tohirovich	
Aholi farovonligi darajasiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni ekonometrik baholash	265
Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Allamurodova Zuxra Alibekovna	
Сектор услуг как стратегический фактор структурной трансформации экономики Узбекистана.....	272
Кадыров Абдурашид Маджидович, Ахмедиева Алия Тохтаровна	
O'zbekistonda valyuta kursini shakllanish holati prognozlari.....	280
Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li	



Проблемы бухгалтерского учета в условиях цифровизации экономики.....	288
Абдуллаев Абдурауф	
Raqamli texnologiyalar sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish strategiyalari.....	299
Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Davlat boshqaruvi organlarining strategik rejalarini ishlab chiqish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	303
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzaeva	
Tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligi ta'minlash	310
Mamatov Sardor Axmatjonovich, Mavlanov Nuriddin Boyqobilovich, Sattarov Nodirjon Absalomovich	
Ziyorat turizmini rivojlantirishda halol standartlarini qo'llashning nazariy, uslubiy va konseptual asoslari	315
Azizova Saodat Xabibulloyevna	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish bo'yicha yevropa tajribasi.....	320
Karlibaeva Gulshat	
Iqtisodiy konsentratsiyalarning sog'lom raqobat muhitiga ta'siri	325
Luqmanov Sharifxon A'zam o'g'li	
Logistika axborot tizimlarini texnologik jarayonlarga joriy etish.....	330
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Принципы перехода к «Зелёной экономике» в Республике Узбекистан.....	336
Хамракулова Сусанна Тотуховна	
Kichik biznesni rivojlantirish iqtisodiy ko'rsatkichlarini prognozlash modellarini qo'llash	340
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Raqamli ta'lim sharoitida liderlikning yangi qirralari	357
Oqmullaev Ravshan Raximjon o'g'li, Xodjievna Durdona Abdurasulovna	
Методология развития экологического менеджмента в промышленном хозяйстве выбросы в атмосферный воздух на горнодобывающих и металлургических предприятиях.....	361
Muradov Botir Xayat	
Strategik budjetlashtirish tizimining natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimi bilan bog'liqligi, xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun tavsiyalar	370
Xushmurotov Zoyir Bektemirovich	
Cultural branding and the entry of traditional products into the international market.....	374
Zebiniso Ganiyeva	
Farovonlikni baholash bo'yicha ilg'or xorijiy nazariy yondashuvlar	379
Norqobilov Nusratilla Norsaitovich	
O'zbekistonda hududlarini turizm salohiyatini innovatsion yondashuv asosida baholash	384
Umirova Dilnoza Safarovna	
Tourism education for sustainability: curriculum development in universities of Uzbekistan	393
Temirova Durdona, Yorqulov Muhammadmurod	
The contribution of small enterprises and private entrepreneurs to job creation in the labor market.....	399
Juraboev Haliljon	
Iqtisodiy o'sish sharoitida transport infratuzilmasi holati va uni rivojlantirish yo'llari.....	404
Haydarov Jahongir Aktamovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni strategik boshqarishning nazariy asoslari va xorijiy tajribalar	410
Quvondiqov Farrux Ibragimovich	
Tijorat banklarida iqtisodiy samaradorlikni axborot texnologiyalar orqali rivojlantirish istiqbollari.....	418
Dadenova Gulxan Kenesbaevna	
Механизмы совершенствования процедур выявления и анализа недостоверной финансовой отчетности в условиях учетной практики Узбекистана	422
Намозов Жасурбек Кувадович	
Влияние цифровых инструментов управления финансами на эффективность использования финансовых ресурсов	428
Хазираткулов Собиржон	



На пути к промышленному росту: опыт развивающихся стран.....	435
Matlyubov Xurshid Jamshidovich	
Yoshlarning moliyaviy mustaqilligiga erishishida aksiyalar bozorining oʻrni va imkoniyatlari.....	443
Oʻraqov Bekzodbek Abdurayxon oʻgʻli	
Развитие транспортной инфраструктуры и влияние на качество предоставляемых транспортных услуг.....	448
Kayyibekov Paraxat Konysbaevich	
Surxondaryo viloyatida 2015-2024 yillar mobaynida oziq-ovqat chakana savdo aylanmasining statistik tahlili	454
Toshpulatov Bobur Rasul oʻgʻli	
Qishloq xoʻjaligi sohasi investitsiya loyihalarini xalqaro moliya institutlari orqali moliyalashtirish.....	458
Tolibov Shoxrux Muminovich	



QISHLOQ XO'JALIGI SOHASI INVESTITSIYA LOYIHALARINI XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH

Tolibov Shoxrux Muminovich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining

Davlat xizmatchilari faoliyatini monitoring qilish va baholash departamenti bosh inspektori

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro moliya institutlari ishtirokida O'zbekistonning qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari tahlil qilinadi. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi xalqaro institutlar tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalarning infratuzilma modernizatsiyasi, suv resurslarini boshqarish, klasterlashuv va institutsional islohotlarga qo'shayotgan hissasi yoritiladi. Tadqiqotda ushbu loyihalarning samaradorlik ko'rsatkichlari, ijtimoiy va ekologik jihatlari, shuningdek, ularni amalga oshirishdagi tizimli muammolar tahlil etiladi hamda sohaga oid takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: xalqaro moliya institutlari, qishloq xo'jaligi, investitsiya loyihasi, moliyalashtirish, infratuzilma, samaradorlik, O'zbekiston.

Abstract: This article analyzes investment projects in Uzbekistan's agricultural sector funded through international financial institutions. It explores the contributions of organizations such as the World Bank, the Asian Development Bank, and the Islamic Development Bank in areas like infrastructure modernization, water resource management, clustering, and institutional reforms. The study assesses the effectiveness, social, and environmental dimensions of these projects, identifies existing challenges, and proposes strategic recommendations for sustainable development of the sector.

Key words: international financial institutions, agriculture, investment project, financing, infrastructure, efficiency, Uzbekistan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются инвестиционные проекты в аграрном секторе Узбекистана, реализуемые при участии международных финансовых институтов. Анализируются ключевые аспекты финансируемых проектов со стороны Всемирного банка, Азиатского банка развития, Исламского банка развития, включая модернизацию инфраструктуры, управление водными ресурсами, кластеризацию и институциональные реформы. В работе также освещаются показатели эффективности данных проектов, их социальные и экологические компоненты, а также предлагаются рекомендации по дальнейшему развитию отрасли.

Ключевые слова: международные финансовые институты, сельское хозяйство, инвестиционные проекты, финансирование, инфраструктура, эффективность, Узбекистан.

KIRISH

Global oziq-ovqat xavfsizligi, iqlim o'zgarishi va aholining tez sur'atlarda o'sishi sharoitida qishloq xo'jaligi sohasi mamlakatlar barqaror iqtisodiy rivojlanishining asosiy ustunlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda qishloq xo'jaligining modernizatsiyasi, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bevosita investitsiyalarning hajmi va sifati bilan bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro moliya institutlari orqali moliyalashtirilayotgan investitsiya loyihalari qishloq xo'jaligi sektorida muhim rol o'ynab, texnologik yangilanish, infratuzilma rivoji, suv va yer resurslarini tejashga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni joriy etishga zamin yaratmoqda.

Bugungi kunda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya institutlari O'zbekistonning qishloq xo'jaligi sohasini moliyaviy va texnik jihatdan qo'llab-quvvatlashda faol ishtirok etmoqda. Bu moliyalashtirish nafaqat tarmoqqa to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jalb etishga xizmat qiladi, balki institutsional islohotlar, kadrlar salohiyatini oshirish va bozor infratuzilmasini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro institutlar tomonidan qo'llanilayotgan loyiha tanlash, baholash va monitoring tizimlari mahalliy investitsiya boshqaruvi amaliyotiga zamonaviy yondashuvlarni olib kirishga turtki bo'lmoqda.



Mazkur maqolada xalqaro moliya institutlari orqali qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining moliyalashtirish mexanizmlari, ularning samaradorlik omillari, moliyaviy xavfsizlik nuqtayi nazaridan tahlili, hamda O'zbekiston tajribasi asosida ularning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Shu orqali mavjud muammolarni aniqlash, xalqaro tajribani tahlil qilish va istiqbolli takliflar ishlab chiqish maqsad qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish va investitsiya siyosati bo'yicha ilmiy izlanishlar ushbu sohaning barqaror rivojlanishidagi moliyaviy manbalar roli, institutsional mexanizmlar, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Jahon miqyosida tan olingan iqtisodchi olimlar bu sohada samarali investitsiya mexanizmlarini shakllantirish masalasini chuqur tahlil qilgan.

Masalan, Derek Byerlee va Klaus Deininger o'z tadqiqotlarida qishloq xo'jaligiga xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishda xalqaro institutlar tomonidan ishlab chiqilgan loyiha boshqaruvi standartlari va ekologik-ijtimoiy xavflarni baholash tizimlarining ahamiyatini qayd etadi. Ular, ayniqsa, Jahon banki va IFC tomonidan ishlab chiqilgan "Performance Standards" mexanizmlarining uzoq muddatli barqarorlikka ta'sirini empirik tahlil qilgan.

Joseph Stiglitz qishloq xo'jaligi sektorida kreditlashning ijtimoiy tenglik va infratuzilma rivojiga bog'liqligini ta'kidlab, ushbu sohaga kiritilgan investitsiyalarning samaradorligini nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ko'rsatkichlar orqali ham baholash zarurligini ilgari suradi. U investitsiyalarni faqat kapital kiritish emas, balki institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish vositasi sifatida ham ko'radi.

UNCTAD tomonidan ishlab chiqilgan "World Investment Report"larda, ayniqsa 2023-yilgi nashrda, agrar sektorni moliyalashtirishda moliyaviy inklyuziya, infratuzilma rivoji va texnologik yangilanishga yo'naltirilgan xalqaro kredit liniyalari va grantlar alohida tahlil qilinadi. Ular Osiyo va Afrika davlatlari misolida bu resurslarning natijadorligini solishtiradi.

O'zbekiston bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ham xalqaro institutlar bilan hamkorlikdagi investitsiya loyihalari salmoqli o'rin egallaydi. S. Xudoyberganov va R. Xudayberganova tomonidan tayyorlangan tahliliy ishda O'zbekistonda Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki va Islom taraqqiyot banki orqali moliyalashtirilgan qishloq xo'jaligi loyihalarining strukturasi, maqsadi va moliyaviy samaradorligi chuqur tahlil qilinadi. Ular, xususan, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish va fermer xo'jaliklariga kredit ajratish tizimlarining loyihaviy samaradorligini baholaydi.

Shuningdek, Osiyo taraqqiyot bankining 2021-yilda chop etilgan "Agricultural Value Chains in Central Asia" hisobotida O'zbekistonda amalga oshirilgan loyihalarning kredit shartlari, monitoring mexanizmlari va natijaviy ko'rsatkichlari ko'rib chiqilgan. Unda ishlab chiqarishdan tortib eksportgacha bo'lgan bosqichlarning moliyalashtirilishiga e'tibor qaratilgan.

Akmal Saidov va Dilshod Rahmatov tomonidan olib borilgan izlanishlarda esa xalqaro moliyaviy institutlarning qishloq xo'jaligiga kiritgan investitsiyalari nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki hududiy bandlik, ijtimoiy infratuzilma va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga ham xizmat qilgani ko'rsatilgan. Ular ayrim loyihalar misolida grant va qarz mablag'larining turli samaradorlik darajalarini tahlil qiladi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro moliya institutlari tomonidan moliyalashtirilayotgan qishloq xo'jaligi investitsiya loyihalari nafaqat iqtisodiy rentabellikni, balki barqaror rivojlanish, ijtimoiy inklyuziya va innovatsiyalarni rag'batlantirishda muhim omil sifatida qaralmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar xalqaro moliya institutlarining rasmiy hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi va moliya vazirliklari statistik ma'lumotlari hamda ilgari chop etilgan ilmiy maqolalar asosida yig'ildi. Olingan ma'lumotlar tahlili taqqoslash, trend tahlili va hujjatli tahlil usullari orqali amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi sohasining barqaror rivojlanishi bevosita samarali moliyalashtirish mexanizmlariga bog'liq bo'lib, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda bu sohani modernizatsiya qilish, infratuzilmasini yangilash va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun katta hajmdagi investitsiyalar zarur. Shu jihatdan xalqaro moliya institutlari orqali moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalari O'zbekiston qishloq xo'jaligida ijobiy strukturaviy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi xalqaro institutlar O'zbekistonda bir qator yirik loyihalarni moliyalashtirmoqda. Ushbu loyihalar odatda o'rta va uzoq muddatli kreditlar, grantlar, texnik yordam paketlari va konsalting xizmatlarini o'z ichiga oladi. Misol



uchun, Jahon banki tomonidan 2018-yildan buyon amalga oshirilayotgan "Agriculture Modernization Project" loyihasi 500 million AQSh dollari miqdoridagi kredit asosida moliyalashtirilmoqda. Ushbu loyiha doirasida 2023-yilga kelib 400 dan ortiq fermer xo'jaligi va klaster korxonalariga texnologik modernizatsiya uchun mablag' ajratildi, bu esa hosildorlikning o'rtacha 18–22 foizga oshishiga olib keldi.

Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari orqali ajratilayotgan mablag'lar faqat infratuzilma yoki ishlab chiqarish texnikalarini yangilash bilan cheklanmaydi. Ular, ayniqsa, loyihalarning ijtimoiy, ekologik va institutsional jihatlariga katta e'tibor qaratmoqda. Masalan, Islom taraqqiyot banki tomonidan moliyalashtirilayotgan "Irrigatsiya va drenaj tizimini takomillashtirish" loyihasida suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, aholi bandligini ta'minlash va mahalliy mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha alohida yo'nalishlar mavjud.

Osiyo taraqqiyot bankining 2021-yilda boshlangan "Agricultural Value Chains Development Project" doirasida esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, logistika xizmatlari va eksport salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan subkomponentlar ishlamoqda. ADB hisobotlariga ko'ra, ushbu loyiha orqali 50 dan ortiq qishloq xo'jaligi kooperatsiyasi yuqori texnologiyali uskunalar bilan ta'minlandi, mahsulotlar eksporti esa 20 foizga oshdi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, xalqaro moliya institutlari moliyalashtirayotgan loyihalar O'zbekistonning agrar sektori uchun uch asosiy yo'nalishda strategik ahamiyat kasb etmoqda:

Infratuzilma va texnologik modernizatsiya. Qishloq xo'jaligi texnikasi, sug'orish tizimlari, laboratoriyalar va logistika markazlari rekonstruksiya qilinmoqda. Bu ishlab chiqarishning texnik samaradorligini oshiradi.

Tizimli islohotlarni rag'batlantirish. Xalqaro moliyaviy institutlar investitsiya ajratishda institutsional islohotlar – ya'ni yer munosabatlarini liberallashtirish, klasterlashuv, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari joriy qilinishiga turtki bermoqda. Bu esa investitsiyalarning nafaqat iqtisodiy, balki boshqaruv darajasida ham samaradorligini oshiradi.

Ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash. Jahon banki va boshqa donorlar barcha loyihalarda ijtimoiy va ekologik xavflarni baholashni majburiy qilgan. Natijada, bugungi kundagi investitsiya loyihalari doirasida ayollar va yoshlar ishtirokini oshirish, yerdan foydalanishda muqobil ekologik yechimlar, suv tejovchi texnologiyalar keng tatbiq etilmoqda.

O'zbekistonning investitsiya portfeli tarkibini tahlil qilsak, 2022–2024-yillar uchun mo'ljallangan davlat investitsiya dasturida qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan jami 2,4 milliard AQSh dollari miqdoridagi 37 ta loyihadan 65 foizi xalqaro moliya institutlari ishtirokida amalga oshirilmoqda. Bu esa davlatning ichki byudjetga tushadigan moliyaviy bosimni kamaytirish, investitsiyalarni uzoq muddatli strategik yo'nalishlarda samarali taqsimlash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. Xalqaro moliya institutlarining O'zbekistonda qishloq xo'jaligini moliyalashtirishdagi ishtiroki

Xalqaro moliya instituti	Moliyalashtirish hajmi	Yo'nalishlar	Muhim loyihalar
Jahon banki (WB)	\$4.65 mlrd (2025-yil holatiga, 23 loyiha)	Qishloq infratuzilmasi, suv resurslari, fermerlarga kredit, texnologik modernizatsiya	Agriculture Modernization Project (\$500 mln), Rural Enterprise Project (\$35 mln kreditlar)
Osiyo taraqqiyot banki (ADB)	\$5.41 mlrd (so'nggi 5 yil ichida)	Qishloq xo'jaligi zanjirlari, logistika, suv tejash texnologiyalari, eksport salohiyati	Agricultural Value Chains Development Project, CAREC orqali klasterlar rivoji
Islom taraqqiyot banki (IsDB)	Aniq raqamlar ochiqlanmagan, 1992-yildan boshlab qishloq sektorida ishtirok etadi	Suv resurslarini boshqarish, biosalin loyihalar, ijtimoiy qishloq tashabbuslari	ICBA (biosalin markazi), texnik va ekomoliyaviy ko'mak
IFAD (Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro fond)	\$23.2 mlrd (jahon bo'yicha, jumladan O'zbekistondagi loyihalar)	Ijtimoiy himoya, kichik fermerlarni qo'llab-quvvatlash, qishloq infratuzilmasi	Fermerlar salohiyatini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligi dasturlari
ODI hisobotlari (rivojlanish bo'yicha mustaqil manba)	\$514 mln (2018-yilda O'zbekistonda qishloq va infratuzilma uchun)	O'zbekiston rasmiy rivojlanish yordami (ODF) doirasida agrar sektorni moliyalashtirish	ODFning 22% qishloq sektoriga, global o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori

Yuqoridagi jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning qishloq xo'jaligi sohasiga xalqaro moliya institutlari tomonidan yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi va mazmuni yildan yilga kengayib bormoqda. Jahon banki tomonidan 2025-yilga qadar 23 ta loyiha doirasida ajratilgan 4,65 milliard AQSh dollari miqdoridagi mablag'lar infratuzilmani modernizatsiya qilish, suv resurslarini boshqarish va fermerlarga kreditlar taqdim



etish kabi yo'nalishlarga qaratilgan. Bu investitsiyalarning asosiy ustuvorligi texnik va institutsional islohotlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Osiyo taraqqiyot banki so'nggi 5 yilda O'zbekistonga 5,41 milliard AQSh dollari sarmoya kiritgan bo'lib, asosan agroiqtisodiy zanjirlar, logistika, eksport salohiyatini oshirish va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirmoqda. Islom taraqqiyot bankining aniq moliyaviy hajmi ochiqdanmagan bo'lsa-da, uning suv resurslarini boshqarish va biosalin loyihalardagi ishtiroki muhim o'ringa ega. IFAD esa kichik fermerlarni qo'llab-quvvatlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirib kelmoqda.

Umuman olganda, bu institutlar tomonidan qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda infratuzilmaviy yondashuv bilan bir qatorda ijtimoiy barqarorlik va ekologik moslashuvga ham alohida urg'u berilayotgani yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu esa sektorni barqaror rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi sohasidagi investitsiyalar faqat moliyaviy manbalar bilan emas, balki loyiha boshqaruvi sifatiga, siyosiy barqarorlikka va institutsional islohotlarga bevosita bog'liq. Masalan, Vetnam va Marokashda xalqaro institutlar bilan hamkorlikdagi loyihalar doirasida qishloq infratuzilmasi, ta'lim va ko'nikmalarni oshirish komponentlari bir vaqtda joriy qilingan. Bu yondashuv investitsiyalarning ko'p qirrali samaradorligini ta'minlagan.

Shu asosda O'zbekiston uchun quyidagi strategik yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Xalqaro moliyalashtirish asosida milliy investitsiya rejalashtirish tizimini uyg'unlashtirish;

Qishloq xo'jaligi infratuzilmasini regional darajada rivojlantirish va investitsiya faoliyatini hududiy diversifikatsiya qilish;

Innovatsion texnologiyalar, raqamli texnologiyalar va agrotexnoparklar rivojini investitsiyaviy yo'nalishga aylantirish;

Ayollar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar ishtirokidagi ijtimoiy yo'naltirilgan loyihalarni kengaytirish.

Shuningdek, O'zbekistonda 2024–2030-yillar uchun qabul qilinayotgan qishloq xo'jaligi strategiyasida xalqaro moliya institutlari bilan yangi avlod loyihalarini ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Bular ichida "yashil moliyalashtirish", "agroklimat transformatsiyasi" va "suv resurslarining raqamli boshqaruvi" kabi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro moliya institutlari orqali qishloq xo'jaligi sohasini moliyalashtirish O'zbekiston uchun nafaqat qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish, balki ilg'or boshqaruv amaliyotlari, texnologik yangiliklar va institutsional islohotlarni joriy etish imkoniyatini yaratmoqda. Amaldagi loyihalar tahlili ushbu institutlarning agrar sektorni modernizatsiya qilish, infratuzilmasini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi. Biroq bu jarayonlar to'liq natija berishi uchun mahalliy tizimning tayyorligi, monitoring va baholash mexanizmlarining aniqligi hamda siyosiy-iqtisodiy muhitning barqarorligi muhim omillar hisoblanadi.

Sohani rivojlantirish uchun xalqaro institutlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan loyihalarning milliy strategiyalar bilan muvofiqligini ta'minlash zarur. Shuningdek, loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirishda hududiy ixtisoslashuv, ekologik barqarorlik va innovatsion yondashuvlarga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Mahalliy kadrlar salohiyatini oshirish, loyiha boshqaruvi va texnik monitoring bo'yicha zamonaviy raqamli tizimlarni joriy etish orqali investitsiyalarning samaradorligi oshiriladi. Xalqaro institutlar tomonidan taklif etilayotgan grantlar, qarzlilar va texnik yordam mexanizmlari o'zaro integratsiyalashgan shaklda qo'llanilganda, moliyaviy yuklama kamayadi va ijtimoiy-iqtisodiy natijadorlik ortadi.

Kelgusida O'zbekiston uchun agrar sohani xalqaro moliyalashtirish asosida barqaror rivojlantirishda "yashil moliyalashtirish", agroklimatik moslashuv, raqamli boshqaruv va klaster asosidagi ishlab chiqarish modellarini kengaytirish muhim strategik yo'nalish bo'lib qoladi. Shuningdek, ayollar va yoshlar ishtirokini oshirish, ijtimoiy inklyuziv yondashuvlarni moliyalashtirish jarayoniga kiritish orqali ijtimoiy barqarorlikka ham erishish mumkin. Bu esa xalqaro moliya institutlari bilan uzoq muddatli, natijaga yo'naltirilgan hamkorlik asosida qishloq xo'jaligining samarali va innovatsion rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D. Byerlee, K. Deininger. Rising Global Interest in Farmland. – Washington: World Bank, 2011. – 214 p.
2. J.E. Stiglitz. Globalization and Its Discontents Revisited. – New York: W.W. Norton & Company, 2018. – 528 p.
3. Asian Development Bank. Agricultural Value Chains in Central Asia. – Manila: ADB, 2021. – 162 p.
4. UNCTAD. World Investment Report 2023. – Geneva: United Nations, 2023. – 248 p.
5. OECD. Development Co-operation Report 2022. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 326 p.
6. A.A. Karimov, A.K. Ibragimov, N.K. Rizaev. Xalqaro moliyaviy institutlar. Darslik. – T.: TMI, 2020. – 392 b.
7. Z.A. Umarov. Investitsiyalar va ularning iqtisodiy samaradorligi. – T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 234 b.



8. World Bank. Uzbekistan Agriculture Modernization Project: Implementation Report. – Washington: WB Group, 2022. – 119 p.
9. E.V. Romanova. Investitsion faoliyatni moliyalashtirish mexanizmlari. – M.: INFRA-M, 2017. – 288 s.
10. FAO. The Future of Food and Agriculture – Trends and Challenges. – Rome: FAO, 2017. – 180 p.
11. D. Rahmatov. Qishloq xo'jaligida moliyaviy menejment. – T.: Iqtisodiyot, 2022. – 198 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
